



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING KOMPYUTER SAVODXONLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA AXBOROTNING O'RNI

Suvanova Nodirabegim Sadir qizi

Navoiy davlat pedagogika institutining 2-bosqich magistranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'im-tarbiya jarayonida kompyuter texnologiyalaridan to'g'ri foydalana olish, kompyuter texnologiyalarning bolalar uchun ahamiyati hamda ta'lim jarayonida axborotdan unumli foydalana olish madaniyatini shakllantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, axborot, madaniyat, ta'lim-tarbiya jarayoni, bolalar uchun kompyuter texnologiyalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalari.*


Аннотация: *В данной статье как правильно использовать компьютерные технологии в образовательном процессе, значение компьютерных технологий для детей и формирование культуры эффективного использования информации в образовательном процессе, использование мультимедийных средств, а теперь взаимодействие информации о детях освещается более широко.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, информация, культура, образовательный процесс, компьютерные технологии для детей, мультимедийные средства в дошкольных образовательных организациях.*

Annotation: *In this article, one of the most relevant topics of today is the ability to use computer technologies correctly in the educational process, the importance of computer technologies for children and the formation of a culture of effective use of information in the educational process, the use of multimedia tools. and now the interaction of information on children is covered more widely.*

Key words: *preschool education, information, culture, educational process, computer technologies for children, multimedia tools in preschool educational organizations.*

Hozirgi kunda zamonaviy bilim - ko'nikmalarga ega, javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan qa'tiyatli, intiluvchan va serg'ayrat barkamol yoshlarni tarbiyalash har doimgidan ham dolzarb masala hisoblanadi, chunki vatanimiz kelajagi bugun biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Ma'lumki, o'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishini taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shuni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash, yosh avlodning har tomonlama puxta bilim olishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratishga alohida, e'tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimizda amalda oshirilayotgan bunday islohatlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoqda. Bu holat malakali kadrlar va yetuk





mutaxassislarga bo'lgan talabning yanada oshib borishiga turtki bo'lmoqda. Bunday talabning qondirilishi o'z navbatida yoshlar o'rtasida axborotga qiziqish xususiyatini va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishning zamonaviy, ijtimoiy innovatsiyalar orqali amalga oshirish ehtiyojini vujudga keltirmoqda.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda kitobxonlik ko'nikmalarini kuchaytirish va ularni ma'naviyatini yuksaltirish va bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish masalalariga katta e'tibor qaratmoqdalar. Aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish bugungi dolzarb mavzulardan biridir. Bu aynan yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internet tarmoqlaridan samarali foydalanish hamda axborot texnologiyalariga qiziqqan bolalarni to'g'ri yo'naltirish bo'yicha faoliyatning ortishiga sababchi bo'ldi. Darhaqiqat, aynan yoshlar bugungi kunda integratsiyalashuv, globallashuv davrida axborotlarni internet tarmog'idan foydalana olishlari hech kimga sir emas. Shuning uchun biz axborot telekommunikasiya va internetdan ongli, madaniyatli foydalanishni maktabgacha yosh davridan boshlab ilk ko'nikmalarni shakllantirib borishimiz eng muhim vazifadir.


Hayotimizning barcha sohalari kabi ta'lim tizimini ham modernizatsiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Ta'limning rivojlanishining ilk bosqichida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash zaruriy ehtiyoj bo'lmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning moliyaviy masalalari va barqaror yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Innovatsion loyihalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar olib borish davr talabi:

Innovatsiya inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, "yangilik kiritish" "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani yuzaga keltiradi. Bunday termen G'arbiy Yevropa va AQSH da o'tgan asrning 60-yillarida G. N. Gonobolin, S.M. Godnin, V. M. Zagvyazinskiy va boshqa olimlarning ishlarida tatbiq etilgan. Bu tadqiqotlar innovatsion faoiyatlar va ilg'or pedagogika tajribalari keng yoyish nuqtayi nazaridan yoritilgan. X. Barnet, Dj. Besset, D. Gamiltion ishlarida innovatsion ishlarini boshqarish, ta'limdagi o'zdarishlarni tashkil etish, innovatsiyalarning " hayot va faoliyat " uchun zarur shart - sharoit masalalari tahlil qilingan.

Yangilik kiritishning sotsial psixolik ekspekti Amerikalik E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborotlardan foydalanish qanday natijalar berayotgani barchamizni qiziqтира kerak. Har bir axborot tarbiyachilar orqali tarbiyalanuvchilarga yetib borish bizga sir emas. Bolalarga to'g'ri





va aniq berilgan axborot bolalar ongida to'g' xulosalar va to'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lish malakalarini hamda madaniyatini rivojlantiradi.

“Axborot”- (lot. Information - tanishtirish, tushuntirish) - degan ma'noni anglatadi. Ta'lim sohalaridagi, yurtimiz yangiliklarini bolalarga aniq axborotlarni bolalarga o'rgatish tarbiyalanuvchilarning axborot madaniyatini shakllanishiga olib keladi.

“Madaniyat” - (arab. - madinalik, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan) - tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi.

Tarbiyalanuvchilar ongida sog'lom e'tiqod, axborot madaniyati, ishonch va milliy qadriyarning ustuvorligi yod mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantiradi. Barkamol avlodni har tamonlama rivojlantirish muammosining yechimi bugungi kunda jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega.

Axborotlashgan pedagogik ta'limda didaktika va axborot jamiyat a'zosining intellektual rivojlanishi jadallashtirish zarurligini aniqlovchi ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik ta'sirga ega bo'lib, bolaning intellektual salohiyatini namoyish etishni va rivojlanishini o'zining asosiy maqsadi etib qo'yadi. Bu maqsadga, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish orqaligini to'liq erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim tarbiya jarayonida axborotlardan to'g'ri foydalanish o'z samarasini bermoqda.

Bugungi kunda deyarli barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan. Tarbiyalanuvchilarga kompyuter savodxonligini ularga katta monitoring orqali namoyish etib borilgan materiallarni o'rganib borsalar o'zlariga ko'nikma hosil qiladilar. Bu jarayon esa maktabning boshlang'ich faoliyatida katta yordam beradi. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga kompyuterlardan foydalanishning afzallik tomonlaridan biri shundan iboratki, bolalar kompyuterda ishlashni to'la o'rganib olganlaridan keyin, undan 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda materiallarni o'rganishlari mumkin. Kompyuter “bag'ri keng” va “toqatli, sabrlidir”. Bola xato qilgan taqdirda ham, xatoni o'zi tuzatgunga qadar, hech kim unga tanbeh bermaydi. Multimedia texnologiyasida ta'lim va tarbiyani mashg'ulot shaklidan tashqari, o'yin shaklida (kompyuterli o'yinlar), ekskursiya, sayohat, amaliy mashg'ulot shaklida (ekologik ta'lim), masofali muloqot shaklida olib borish mumkin.

Sulaymonovanning fikricha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashda xizmat qiladi. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan





umumlashtirish, xulosalash hamda tinglovchiga yetkazib berishni yo'lga quyish ta'lim tizmini samaradorligini oshirishga hissa qo'sha oladigan yagona omildir.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki axborotlardan unumli foydalanish davr talabi, uni tarbiyanuvchilarga yetkaza olish esa tarbiyachilalar oldidagi mas'ulyatli faoliyatlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulaymonova N. O'quv jarayoni samaradorligiga erishishda innovasion texnologiyalarning o'rni (Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman) II-qism 11-iyun 2020yil.

2. Джураева Б.Р., Тожибоева Ҳ.М., Назирова Г.М. Мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим-тарбия беришнинг замонавий тенденциялари. Т.2015 yil [63 б.]

3. Ишмухамедов Р.Ж. Тарбияда инновацион технологиялар. -Т.: Фан, 2010. [96-98 б.]

4. Рахимов О.Д., Турғунов О.М., Мустафаев Қ.О., Рўзиев Ҳ.Ж. Замонавий таълим технологиялари.Т.: 2012 [7-9 б.]

5. <https://kompy.info> › <https://mixcoin.ru> › strategy

6. <https://uz.wikidea.ru>

